

Tursunova Durдона Muminjon qizi
SamDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qur‘oni Karimdagi dastlabki oyat Bismillahir rohmanir rohim fazilatiga bag‘ishlanadi.*

Kalit so‘zi: *Bismillahir rohmanir rohim, oyat, hadis, musulmon, ismi sharif.*

Abstract: *In this article, the first verse of the Holy Qur'an is dedicated to the virtue of Bismillahir Rahmanir Rahim.*

Key word: *Bismillahir rahmanir rahim, verse, hadith, Muslim, ismi sharif.*

Musulmon kishi kundalik hayotida eng ko‘p talaffuz qiladigan jumla bu - "Bismillahir rohmanir rohim"dir. "Bismillahir rohmanir rohim"ning fazilatini yo bilamiz yoki bilmaymiz.

Keling, sevimli payg‘ambarimiz Muhammad mustafo sollallohu alayhi va sallamdan voris bo‘lgan sahih hadislar orqali eng ko‘p ishlatadigan so‘zimiz- "Bismillahir rohmanir rohim"ning fazilati haqida so‘z yuritaylik. Shoyadki, xabardor bo‘lib, bu kalimani yanada ko‘proq aytib, Allohning rahmat va mag‘firatiga yana ham ko‘proq erishadigan bo‘lsak.

Imom Doroqutniy Ibni Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilgan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Jabroil alayhissalom menga Alloh taolodan vahiy olib kelganida, avvalgi aytgan kalimasi "Bismillahir rohmanir rohim" bo‘lar edi, deb marhamat qilganlar.

Imom Buxoriy rahmatullohi alayh hazratlari hazrati Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam "Bismillahir rohmanir rohim"ni nozil bo‘lishi haqida shunday deganlar: "Vaqtiki "Bismillahir rohmanir rohim" nozil bo‘lganda maloikalardan iborat samovot ahli juda xursand bo‘ldilar. Uning nozil bo‘lishi bilan Arsh titrab ketdi. U bilan mingta farishta nozil bo‘ldi. Maloikalarning imonlari ziyoda bo‘ldi. Jinlar yuztuban yiqildilar. Falaklar harakatga keldi. Uning ulug‘ligi oldida davlatmandlarning qadri pasaydi".¹²¹

Oisha onamiz roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Vaqtiki "Bismillahir rohmanir rohim" nozil bo‘lganda tog‘lar ham tasbeh aytdi. Tog‘larning tasbehini hatto Makka ahli ham eshitdi. Ular: "Muhammad (s.a.v) tog‘larni ham sehr qildi", dedilar. Bas, ularning ustiga Alloh taolo tutun yubordi. Tutun hatto-ki Makka ahlining ustiga soya soldi". Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kimki "Bismillahir rohmanir rohim"ni ishonch va iymon bilan aytsa, tog‘lar ham u bilan birga tasbeh aytadi, illo aytguvchi tog‘lar tasbehini eshitmaydi", dedilar. Doroqutniy va Tabaroniy rohimahumulloh

¹²¹ Imom Buxoriy. "Al-jome as-sahih". Munir nashriyoti, 2021.

Burayda roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar. Nabiyl sollallohu alayhi vasallam menga: "Sulaymon alayhissalomdan keyin birorta nabiylga nozil bo'lmagan oyatni senga aytmay masjiddan chiqmayman", dedilar-da keyin "namozda Qur'onni nima bilan boshlaysan", dedilar. Men "Bismillahir rohmanir rohim", bilan dedim. Ul zot "Ha, o'sha, o'sha", dedilar. Vaki' va Sa'labiy rohimahumulloh Ibni Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: "Kimki do'zaxning Zaboniya farishtalari changalidan omonda bo'lmoqni xohlasa, 19 ta harfdan iborat "Bismillahir rohmanir rohim"ni ko'p o'qisin. Alloh taolo "Bismillahir rohmanir rohiym"dagi har bir harfni har bir Zaboniya farishtaga qalqon qiladi".

Daylamiy roziyallohu anhu Ibni Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kimki "Bismillahir rohmanir rohim"ni o'qisa, Alloh taolo uning har bir harfi uchun qirq ming hasanot yozadi, qirq ming yomonligini o'chiradi, u uchun qirq ming darajot ato etadi. (Dorul Mansur). Anas ibni Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi. Nabiyl sollallohu alayhi vasallam: "Agar butun yer yuzidagi dov - daraxtlar qalamlar bo'lsa, dengizlar siyoh bo'lsa va jinlar, insonlar, farishtalar kotiblar bo'lsalar va "Bismillahir rohmanir rohim"ni ma'no va fazilatlarini ming-ming yillab yozsalar, uni o'ndan birini ham yoza olmaslar.(Risoi basmala). Nabiyl sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilinadi: "Agar banda "bismillahir rohmanir rohim" desa, jannat ahli "Labbayka va sa'dayka" ya'ni mana men sening qarshingda, oldingdaman. Seni baxtli qilaman, deydi va Alloh taologa iltijo qiladi: "Parvardigoro, falonchi bandang "Bismillahir rohmanir rohim" dedi. Allohim uni do'zax ahlidan qilmagin, uni jannatingga kirgiz", deydi".

Nabiyl sollallohu alayhi vasallamdan rivoyat qilinadi. Ul Zot sollallohu alayhi vasallam: "Qiyomat kuni bir qavm keltiriladi. Ular "Bismillahir rohmanir rohim", deb keladi. Tarozida ularning yaxshiliklari yomonliklaridan og'ir keladi.

Boshqa ummatlar: "Ularning yaxshiliklari bunchalar ham og'ir", deydi. Albatta, buning sababi ular bu hayoti dunyoda har bir kalomlarini "Bismillahir rohmanir rohim" bilan boshlar edilar. "Bismillahir rohmanir rohim" Alloh taoloning ulug' ismlaridandir. Garchi tarozining bir pallasiga "Bismillahir rohmanir rohim" qo'yilsa, ikkinchi pallasiga Samovot va Yer, ular ichidagi va ular orasidagi narsalar qo'yilsa, albatta, "Bismillahir rohmanir rohim" og'ir keladi. Alloh subhonahu va taolo bu ummatni "Bismillahir rohmanir rohim"ning fazilati-yu barakatidan turli xil balo-ofatdan, shaytonning sharridan omon saqlaydi. Shuningdek, turli xil kasalliklardan, yo'qolib ketishdan, o'tda yonishdan, mayib-majruh bo'lishdan, suvga cho'kishdan omon saqlaydi.

Buyuk bobomiz Abu Lays Samarqandiy aytadi: "Farzandingning tili kalimaga juftlangan kundan boshlab uning ong-u shuuriga quyidagi uch muborak kalimani quymog'ing farzdir: "Assalomu alaykum", "Bismillahir rohmanir rohim" va "Allohu akbar".

Bolalarga 3–5 yoshidan boshlab ilm o'rgatish tavsiya etiladi. Diniy ta'lim-tarbiyani esa bola ong-u shuuriga voqea-hodisalar sabablari bilan qiziq boshlaganidan

singdirish kerak. Ulug' allomalar va ularning ibratli hayot yo'llarini o'rgatish orqali farzandlarimizning ruhiy olami yanada yuksala boshlaydi.

Har bir ishni "Basmala" bilan boshlash sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: «Har bir ish "Bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir"», deganlar.

"Bismillah"ning ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak: "Bismillah"- Allohu taoloning ismi sharifi bilan boshlayman. "ar-Rohman"- dunyoda hammaga, barcha jonli maxluqotiga rizq beruvchi. "ar-Rohiy"- oxiratda faqat mo'min qullariga jannat va jamol ne'matlarini ehson etuvchi.

"Rohman" umumiy, "Rohiy" esa xos bir ma'noni ifodalashi bois "Bismillahir-rohmanir-rohim" degan momin Alloh taoloning Rahmon sifatidagi tajalliyi bilan o'tkinchi dunyoda barcha mavjudotga beriladigan ne'matlardan bahramand bo'ladi. Rohiy ilohiy sifati tajalliyi bilan Alloh taoloning abadiy va boqiy bo'lgan oxiratga xos in'om-ehsoni, jannati va jamolini ko'rish baxtiga noil bo'ladi.

Arabcha ismlar faqat "ot" yoki "nom" ma'nosida kelmaydi, balki ayni sifat, nishon va alomat ma'nosini ifodalashi mumkin. Shunday ekan: "Rohman va Rohiy Allohning ismi bilan boshlayman" jumlasida "Alloh taoloning tengsiz qudratini ko'rib, Uning bu dunyoda barcha maxluqotga beradigan in'om-ehsonini, oxiratda esa faqat mo'min qullariga ato etuvchi ne'matlarini orzu qilib, Allohning ismi bilan boshlayman", degan ma'noni bildiradi.

Bu qudsiy kalima "A'uzu"dan keyin o'qiladi. "A'uzu" botil yo'llarda adashib ketmaslik uchun shayton yomonligidan Allohning panoh berishini so'rash bo'lsa, "Bismillah" ham to'g'ri yo'lga boshlashida Allohdan ne'matlarini, in'om-ehsonini so'rashning bir ifodasidir. "Bismillah"dan keyin Rohman va Rohiy sifatlarining kelishi Alloh taoloning shafqat va marhamati naqadar buyukligini bayon etadi.

Bu muborak jumlaning ma'nosi: "Dunyoda do'stlariga ham, dushmanlariga ham va butun jonli maxluqotiga rizq beruvchi, oxiratda esa faqat mo'min qullariga jannati va jamoli bilan in'om-ehson etuvchi Alloh Azimush-shanning ismi sharifi ila ushbu ishni boshlayman" demakdir.

Bu "Bismillah"i sharifdagi cheksiz asrordan bir nechasiga murojaat etsak, benihoya hikmatlarni topamiz. "Bismillahir-rohmanir-rohim" o'n to'qqiz harfdir va buning asrori jahannamning o'n to'qqiz zaboniyiga (azob farishtalariga) muqobildir. Biror kishi chin dilidan "Bismillahir-rohmanir-rohim" desa, Alloh taolo o'n to'qqiz zaboniyning shiddatini bu o'n to'qqiz harf bilan daf etadi. Shunga ko'ra, hatto nabiyilar va valiyilar ham bu ikki muborak ismi sharif tufayli dunyoviy hamda uxroviy mashaqqatlardan panoh topishgan. Hatto Nuh(a.s.) kemaga minayotganlarida Hud surasi 41-oyati

karimada aytilganidek: “(Allohning nomi bilan) kemaga mininglar! (chunki) uning yurishi ham, turishi ham Alloh nomi bilan bo’lur”, deb salomatlikka yetishdi. “Bismillah”ning yana bir siri haqida bunday deyiladi: Bir kecha-kunduz 24 soatdir. Shundan besh soatga besh vaqt namoz taxsis etilgan, qolgan 19 soatida esa 19 harfli “Bismillah”ni o’qish gunohlarga kafforat bo’ladi.

“Bismillah”i sharif “Be” harfining asrori naqadar buyuk: Hazrati Ali karamallohu vajhahu: “Tavrot, Injil, Zaburdagilarning hammasi Qur’oni karimda, Qur’oni karimdagi haqiqatlar esa “Be” harfida mavjuddir. “Be” harfidagi asror va haqiqatlar esa “Be”ning ostidagi nuqtada mavjuddir”, deganlar.

Muhiddin Arabiy ham “Be” harfidagi futuh haqida bunday deydi: “Ey inson, bilginki, Alloh taolo Kitobi karimini “Be” bilan boshlab, “Bismillah” deyishi “be”ning sharafidandir. Yana bu kabi har bir sura ham “Be” bilan boshlanadi. Tavba surasi “Bismillah”siz boshlansa-da, avvali yana harflar ichida faqat “Be” bilan “Baroatun minalloh” deya nozil qilindi.” Bu bayon “Be” harfining buyuk sharafini bildirish uchundir”.

“Ruhul bayon” sohibi Ismoil haqqiy esa “Be”ning harflar ichida o’n alomat bilan imtiyoz topganini aytadi. Orif zotlar “Be” harfining sharaf va fazilatlarini aniqlashgan. Shunga ko’ra barchalari kitoblarini “Be” harfi bilan boshlashni shior qilib olishgan. Bundan maqsad esa Haq taolo Kitobining ilohiy asroriga muvofiqbo’lish istagidir.

“Masnaviyi sharif” sohibi Jaloliddin Rumiy ham ushbu mashhur kitobini “Bishnav az nay chun hikoyat mekunad” deb boshlaydi.¹²² Ya’ni, vujudi nay kabi, ichi mosuvodan holi, lekin Rahmoniy navha (nafas) bilan to’lgan komil inson holatini tasvir etadi. “Masnaviy”ning bunday boshlanishi “Bismillahir-rohmanir-rohim”dagi “Be”ning siridan kelib chiqadi.

Bularning bari “Bismillah”i sharifning nihoyasiz ilohiy asroridan bir qatradir. Shuning uchun ham barcha anbiyo va avliyo “Bismillah”i sharifga umrlarining oxirigacha ta’zim qilib o’tgan. Rasulullohning (s.a.v.) bu xususda: “Bismillah”i sharif yozilgan qog’ozni ta’zim etib, erdan olgan kishi, inshaalloh, siddiqlar zumrasidandir” deya aytishlari shu ilohiy sirlarga ko’radir.

Bag’dod shahrida yashagan Bishri Xofiy ismli zotning ulug’ martabaga yetishuvi ham shu hadisning siriga muyassar bo’lishi tufayli ro’yobga chiqqan. Bishri Xofiy bir kuni bozordan qaytayotganida yerga tushib yotgan bir maktubni ko’rib qoladi. Maktub avvalida “Bismillah”i sharif yozilgan edi. Darhol uni yerdan oladi. Qog’ozni tozalaydi va ta’zim bilan baland bir devorning kovagiga qo’yadi. Kechasi tushida bir kishi kelib, “Ey Bishri Xofiy, Alloh taoloning ismi sharifini ta’zim va hurmat bilan, yerdan ko’tarib olganing uchun Alloh seni aziz va muhtaram qildi”, deb xabar qiladi.

Bu ismi sharif barakotidan har mushkul oson bo’lishi bilan birga barcha maraz kasalliklar, illat ham daf bo’ladi. Bu mo’jiza odam yaratilganidan beri davom etmoqda.

¹²² Jaloliddin Rumiy “Ma’naviyi masnaviy”. Sharq nashriyot- matbaa konserni bosh tahriyat. T-1999.

Hazrati Umar (r.a.) Rum Qaysarining boshida tinchlik bermaydigan og'riq borligini eshitib, unga shifo bo'lishi uchun "Bismillah" yozilgan bir bosh kiyim yuboribdi. Rum Qaysari "Bismillah" yozilgan bosh kiyimni kiyganida og'riq to'xtar, echsa, yana og'riq boshlanardi. Bu hol Qaysarning diqqatini tortadi. U bosh kiyimni sinchiklab qarab chiqadi va tikilgan paxtalari orasida bir, yozuvga ko'zi tushadi. Bu yozuv "Bismillahir-rohmanir-rohim" edi. Nihoyat Qaysar shifoning shu qudsiy kalimada ekanini tushunib etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bismillah har bir mo'min-musulmonning har daqiqada tili-yu dilidan tushirmaydigan aziz kalomi bo'lishi kerak. Zero ushbu kalom orqali biz cheksiz savob-u, ajrlarga erishamiz, inshooloh.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imom Buxoriy. "Al-jome as-sahih". Munir nashriyoti, 2021
2. Abdulla A'zam. "Abrorlar hayrati".- G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi.-T-2021.
3. Alibek Rustamiy. "Bismilloh"ning manosi.-Toshkent: "Cho'lpon", 1993.
4. Jaloliddin Rumi "Ma'naviyi masnaviy". Sharq nashriyot- matbaa konserni bosh tahriyat. T-1999.